



## XORAZM VOHASINING MUSTAQILLIK YILLARIDAGI SUG‘ORILISH TIZIMI TARIXI (TOSHSOQA MAGISTRAL KANALI MISOLIDA)

*Xudaynazarov Sarvarbek Shavkat o‘g‘li*

*Urganch RANCH texnologiya universiteti*

### **Annotatsiya**

Maqolada mustaqillik yillarida Xorazm vohasida suv xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va Toshsoqa magistral irrigatsiya tizimini rekonstruksiya qilish jarayoni tahlil etiladi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan boshlangan va Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida keng ko‘lamda davom ettirilayotgan suv xo‘jaligi islohotlari, xalqaro moliya institutlari (Islom Taraqqiyot Banki va boshqalar) bilan hamkorlikdagi loyihalar hamda suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish masalalari ko‘rib chiqilgan. Xususan, Xorazm viloyatidagi 276,7 ming gektar sug‘oriladigan yerning 191,3 ming gektarini suv bilan ta‘minlovchi Toshsoqa tizimining rekonstruksiyasi, 120 km kanallarning ta‘mirlanishi, suv va elektr energiyasi tejash natijalari batafsil yoritilgan. Tadqiqot mustaqillik davrida suv resurslaridan samarali foydalanish va barqaror rivojlanish strategiyasining amaliy natijalarini ochib beradi.

### **Kalit so‘zlar**

Xorazm vohasi, Toshsoqa magistral kanali, suv xo‘jaligi islohotlari, irrigatsiya tizimini rekonstruksiya qilish, suv tejoychi texnologiyalar, barqaror suv boshqaruvi, ekologik barqarorlik, Islom Taraqqiyot Banki, suv resurslaridan samarali foydalanish.

### **Abstract**

This article analyzes the reforms implemented in the water management sector of the Khorezm oasis during the years of independence and the reconstruction process of the Toshsoqa Main Irrigation System. The study examines the water management reforms initiated by the First President of the Republic of Uzbekistan



and extensively continued under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev, as well as projects carried out in cooperation with international financial institutions, including the Islamic Development Bank, and the introduction of water-saving technologies. In particular, the reconstruction of the Toshsoqa system, which supplies water to 191.3 thousand hectares out of the 276.7 thousand hectares of irrigated land in the Khorezm region, the rehabilitation of 120 km of canals, and the resulting savings in water and electrical energy are discussed in detail. The research reveals the practical outcomes of the strategy aimed at the efficient use of water resources and sustainable development during the independence period.

### **Keywords**

Khorezm Oasis, Toshsoqa Main Canal, water management reforms, irrigation system reconstruction, water-saving technologies, sustainable water management, ecological sustainability, Islamic Development Bank, efficient water use.

### **Kirish**

Xorazm vohasining 1925–1991-yillar oralig‘idagi irrigatsiya tarixi — bu qadimiy dehqonchilik madaniyatining keskin industrial va siyosiy transformatsiyaga uchrash jarayonidir. Olib borilgan tadqiqotlar va arxiv ma’lumotlarining tahlili quyidagi yakuniy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Sovet davri agrar siyosati natijasida voha irrigatsiyasi asrlar davomida shakllangan an’anaviy chig‘iriy usulidan voz kechib, yirik magistral kanallar va muhandislik inshootlari tizimiga o‘tdi. Ayniqsa, 1939–1941-yillarda Toshsoqa magistral kanalining xalq hashari usulida barpo etilishi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy landshaftini tubdan o‘zgartirgan strategik burilish nuqtasi bo‘ldi.

1941–1991-yillar oralig‘idagi taraqqiyot “miqdoriy o‘shish va sifat inqirozi” tamoyili asosida kechdi. Paxta yakkahokimligini ta’minlash maqsadida ekin maydonlarining keskin kengaytirilishi qisqa muddatli iqtisodiy samaradorlikni oshirsa-da, uzoq muddatli ekologik muvozanatning buzilishiga, xususan, Orol dengizi fojiasi va tuproqning global darajada sho‘rlanishiga olib keldi.



1991-yilga kelib meros qolgan irrigatsiya infratuzilmasi texnik eskirish va ekologik inqiroz yoqasida edi. Toshsoqa magistral kanali va unga tutash tarmoqlar loyolanib, suv o'tkazish quvvati pasaygan, nasos stansiyalari eskirgan, yer osti suvlari sathi ko'tarilib, sho'rlanish kuchaygan edi.

Mustaqillik yillarida Toshsoqa kanali o'zining strategik ahamiyatini yo'qotmadi va vohaning asosiy suv arteriyalaridan biri bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 6-noyabrdagi PQ-1849-sonli qarori Islom Taraqqiyot banki ishtirokida "Xorazm viloyati Toshsoqa (Toshsokin) tizimining magistral sug'orish kanallarini tiklash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Xorazm viloyatidagi Toshsoqa magistral sug'orish tizimini tiklash va modernizatsiya qilish bo'yicha birinchi yirik xalqaro loyihalardan biri hisoblanadi<sup>1</sup>

Toshsoqa tizimi Xorazm vohasining asosiy suv arteriyasi hisoblanadi. Sovet davrida qurilgan bu tizim 2012-yilga kelib jiddiy eskirgan edi. Qaror sovet merosidagi ekstensiv irrigatsiya modelining muammolarini hal qilishga qaratilgan birinchi yirik qadam bo'ldi.

Ushbu loyiha keyinchalik 2017-yildan boshlab keng ko'lamli suv tejankor texnologiyalar va infratuzilma modernizatsiyasi dasturlarining boshlanishi sifatida xizmat qildi.

Mazkur qaror Xorazm viloyati suv xo'jaligini rivojlantirishda muhim burilish nuqtasi bo'ldi. U nafaqat texnik muammolarni hal qilishga, balki suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli strategiyaning boshlanishi edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda suv xo'jaligi sohasida tub islohotlar boshlandi. Suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, qishloq xo'jaligida suv tejashni keskin

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 6-noyabrdagi PQ-1849-son qarori "Islom Taraqqiyot banki ishtirokida "Xorazm viloyati Toshsoqa tizimining magistral sug'orish kanallarini tiklash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" // Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-2270311>



oshirish va ekologik muammolarni hal etish davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Prezident tomonidan amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida suv xo‘jaligini modernizatsiya qilish, eski nasos stansiyalarini bosqichma-bosqich foydalanishdan chiqarish, suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish va suv resurslarini boshqarish tizimini raqamlashtirish bo‘yicha katta hajmdagi ishlar olib borilmoqda.

Xorazm viloyati suv xo‘jaligi islohotlarida alohida o‘rin egallaydi. Bu yerda suv nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki butun hayot tarzi va iqtisodiyotning asosiy omilidir. Qadimdan “suv bor yerda hayot bor” tamoyili Xorazmda o‘zining to‘liq ma‘nosini topgan. Viloyatning qurg‘oqchil iqlimi, yerlarning kuchli sho‘rlanishi irrigatsiya tizimini takomillashtirishni hayot-mamot masalasiga aylantirgan. Shu sababli, irrigatsiya samaradorligini oshirish, suvni tejash va yerga ehtiyotkorona munosabat Xorazm dehqonchilik madaniyatining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 14-oktyabrdagi Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida ta’kidlaganidek “Haqiqatan ham, Xorazm – o‘z kasbining fidoyisi va ustasi bo‘lgan asl dehqonlar yurti ekani bilan har qancha faxrlansak, sizlarga har qancha tahsin va tasannolar aytsak arziydi. Bu zamindagi og‘ir iqlim va murakkab tuproq sharoitiga qaramasdan, voha mirishkorlari barcha qishloq xo‘jaligi ekinlaridan mo‘l hosil yetishtirib kelmoqda. Buning uchun odam avvalo o‘z yurtini, o‘z Vatanini sevishi, unga sadoqat ko‘rsatib yashashi kerak va Xorazm ahli buni o‘z tarixida, o‘z hayotida takror va takror isbot etib kelmoqda, desak, ayni adolatni aytgan bo‘lamiz.

Aziz do‘stlar, axir, o‘zingiz o‘ylang, yozi jazirama issiq, qishi qahraton sovuq, yerlari kuchli sho‘rlangan bu hududda nafaqat mehnat qilish, balki mo‘l hosil undirish – bu, ochiq aytish kerak, har kimning ham qo‘lidan kelmaydi. Shuning



uchun xorazmlik dehqonlarni bir emas, ikki marta qahramon, desak hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi<sup>2</sup>.

Viloyatda fermer xo‘jaliklarining suv ta‘minotini yaxshilash maqsadida Toshsoqa magistral sug‘orish kanallari tizimi rekonstruksiya qilinmoqda. Ushbu loyiha 2018-yilda to‘liq yakunlanadi va 191 ming gektardan ortiq yer suv bilan kafolatli ta‘minlanadi<sup>3</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi” suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tejavchi texnologiyalarni keng joriy etish va mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilishni mamlakat suv siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb belgiladi<sup>4</sup>.

Xorazm viloyatida ushbu Konsepsiya doirasida amaliy ishlar sezilarli darajada jadallashdi. Xususan, 2025-yil 27-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshsoqa magistral kanali rekonstruksiya ishlarini shaxsan ko‘zdan kechirdi.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida suv xo‘jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida Toshsoqa tizimini tubdan rekonstruksiya qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2025-yil 27-yanvar kuni Prezidentning Xorazm viloyatiga tashrifi chog‘ida Toshsoqa magistral kanali rekonstruksiya ishlarini shaxsan ko‘zdan kechirib, aniq topshiriqlar bergan edi<sup>5</sup>.

---

<sup>2</sup> [www.president.uz](http://www.president.uz)

<https://president.uz/oz/lists/view/1147#:~:text=O%E2%80%98zbekiston%20Respublikasi%20Prezidenti,14.10.2017>

<sup>3</sup> [www.president.uz](http://www.president.uz)

<https://president.uz/oz/lists/view/1147#:~:text=O%E2%80%98zbekiston%20Respublikasi%20Prezidenti,14.10.2017>

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6024-son Farmoni, 10.07.2020 y. // Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4892953>

<sup>5</sup> O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA). Prezident Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatida Toshsoqa magistral kanali rekonstruksiya ishlarini ko‘zdan kechirdi. 27.01.2025. <https://uza.uz/posts/56503>



Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyati Toshsoqa tizimidagi magistral sugʻorish kanallarini qayta tiklash loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Xorazm viloyati sugʻorma dehqonchilik tarixi toʻrt ming yil avvalgi davrga borib taqaladi. Bugungi kunda viloyatda 276,7 ming gektar sugʻoriladigan maydon mavjud. Toshsoqa tizimi orqali Gurlan va Yangibozor tumanlaridan tashqari barcha tumanlardagi 191,3 ming gektar yer sugʻoriladi<sup>6</sup>.

Amudaryoda suv kam boʻlgan paytlarda, ayniqsa, erta bahor va yoz oylari boshida kanallarda suv sathi juda past boʻlib, shoʻr yuvish, gʻalla, paxta va boshqa ekinlarni sugʻorish uchun suv asosan nasoslar yordamida olinardi. Bu xarajatlarning ortib ketishiga, suv isrofgarchiligiga hamda yerlarning meliorativ holati yomonlashuviga olib kelardi.

Mazkur loyihaga koʻra, viloyatdagi Toshsoqa, Shovot, Polvon-Gʻazovot va Gʻazovot magistral va xoʻjaliklararo kanallarining 120 kilometri rekonstruksiya qilindi. Rejadagi 607 gidrotexnik inshootdan 318 tasi yangidan qurildi. Bu ishlar natijasida 279 dona nasos agregatlaridan voz kechilib, qishloq xoʻjaligi ekinlari oʻzi oqar suv bilan taʼminlanadi va 31,6 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejaldi<sup>7</sup>.

Davlatimiz rahbari qisqa fursatda bajarilgan bu ishlarga yuqori baho berdi. Kanallar atrofiga yerlarni obodonlashtirish, tuproq va iqlim sharoitidan kelib chiqib koʻchat turlarini tanlash, kanallar boʻylab besh qator daraxt ekish, yozning jazirama issiq kunlarida odamlarga dam olish sharoitlarini yaratish boʻyicha Qishloq va suv xoʻjaligi vazirligi hamda viloyat hokimligi mutasaddilariga tegishli topshiriqlar berdi.

Islom taraqqiyot banki ishtirokida Xorazm viloyatidagi “Toshsoqa” kanallar tizimi, Jahon banki mablagʻlari hisobidan Fargʻona vodiysi viloyatlaridagi kanallar,

<sup>6</sup> Prezident.uz. (2017). Xorazm viloyatidagi sugʻorish tarmoqlari tubdan yangilanmoqda. <https://president.uz/oz/lists/view/1138>

<sup>7</sup> Prezident.uz. (2017). Xorazm viloyatidagi sugʻorish tarmoqlari tubdan yangilanmoqda. <https://president.uz/oz/lists/view/1138>



Osiyo taraqqiyot banki hamkorligida Buxoro viloyatidagi, Islom taraqqiyot banki kreditlari evaziga Surxondaryo viloyatidagi kanallar betonlanishi natijasida ushbu kanallar hududida yer osti suvlarining sathi oʻrtacha koʻp yillik koʻrsatkichdan 0,3-0,5 metrga pasaydi, kanallarning foydali ish koeffitsienti oshdi<sup>8</sup>.

2026-yil 3-martdagi yigʻilishda esa viloyatning yoʻl va suv infratuzilmasini yaxshilash uchun 1 milliard 600 million AQSh dollari ajratilishi eʼlon qilindi. Mazkur choralar mamlakat suv siyosatining amaliy ifodasi boʻldi<sup>9</sup>.

Mustaqillik yillarida, xususan, 2017-yildan keyin amalga oshirilayotgan tub islohotlar va 2020–2030 yillarga moʻljallangan Suv xoʻjaligini rivojlantirish Konsepsiyasi oʻtmishdagi xatolarni tuzatish, suv resurslaridan oqilona foydalanishni taʼminlash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va mintaqaning barqaror rivojlanishini taʼminlashda muhim bosqich boʻldi.

Xorazm viloyatida Toshsoqa magistral tizimining asosiy suv arteriyasi sifatida saqlanib qolishi va uni zamonaviy talablarga mos ravishda rekonstruksiya qilish ishlari oʻtmish tajribasidan saboq olib, kelajakni qurishning yorqin namunasi hisoblanadi. Ushbu tajribani chuqur ilmiy anglash suv tejash, ekologik xavfsizlikni oshirish va Xorazm vohasining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, suv xoʻjaligi sohasidagi izchil islohotlar Xorazm kabi suvga qattiq bogʻliq mintaqalarda nafaqat suv muammolarini hal etish, balki iqtisodiy oʻsish, ekologik muvozanat va kelajak avlodlar uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishning asosiy kafolati boʻlib xizmat qilmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 6-noyabrdagi PQ-1849-son qarori “Islom Taraqqiyot banki ishtirokida “Xorazm viloyati Toshsoqa

<sup>8</sup> “Oʻzbekiston qishloq va suv xoʻjaligi” jurnalining 2025-yil 8-soni.

<sup>9</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. Xorazm viloyatining yoʻl va suv infratuzilmasini yaxshilashga 1,6 milliard AQSh dollari ajratiladi. 2026-yil 3-mart // Daryo.uz, 04.03.2026. – : <https://daryo.uz/2026/03/04/xorazmda-yol-va-suv-infratuzilmasini-yaxshilash-uchun-16-mlrd-dollar-ajratiladi/>



tizimining magistral sug‘orish kanallarini tiklash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // Lex.uz. – : <https://lex.uz/docs/-2270311>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” // Lex.uz. – : <https://lex.uz/docs/-4892953>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. Xorazm viloyatidagi sug‘orish tarmoqlari tubdan yangilanmoqda. 14.10.2017. – : <https://president.uz/oz/lists/view/1138>

4. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA). Prezident Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatida Toshsoqa magistral kanali rekonstruksiya ishlarini ko‘zdan kechirdi. 27.01.2025. – : <https://uza.uz/posts/56503>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. Xorazm viloyatining yo‘l va suv infratuzilmasini yaxshilashga 1,6 milliard AQSh dollari ajratiladi. 2026-yil 3-mart // Daryo.uz, 04.03.2026. – : <https://daryo.uz/2026/03/04/xorazmda-yol-va-suv-infratuzilmasini-yaxshilash-uchun-16-mlrd-dollar-ajratiladi/>.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. Prezident Xorazm viloyati Xalq deputatlari kengashining navbatdan tashqari sessiyasida nutq so‘zladi. 14.10.2017. – : <https://president.uz/oz/lists/view/1147>.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. Xorazm viloyatida islohotlar natijadorligi va ustuvor vazifalar ko‘rib chiqildi. – : <https://president.uz/oz/lists/view/8988>.

8. “O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi” jurnali. 2025-yil, 8-son.